



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасва Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Гулчеҳра Агзамова АШТАРХОНИЙЛАР СУЛОЛАСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲВОЛИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР (17-18-ЮЗЙИЛЛИК ЎРТАЛАРИ).....	5
2. Ильдар Азизов РАЗВИТИЕ МЕЖПАРЛАМЕНТСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С ПАРЛАМЕНТСКОЙ АССАМБЛЕЕЙ ОБСЕ.....	13
3. Farangis Azimova ЎРТА АСРЛАРДА ДАШТИ ҚИПЧОҚДА ЮЗ БЕРГАН СИЁСИЙ-ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ АМУДАРЁ – СИРДАРЁ ОРАЛИҒИДАГИ ВОҲАЛАРГА ТАЪСИРИ..	19
4. Феруза Амонова XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ҚОРАҚЎЛЧИЛИК ТАРИХИ (БУХОРО АМИРЛИГИ МИСОЛИДА).....	28
5. Ikrom Djurayev MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	34
6. Фарходжон Исматуллаев O‘ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXSHUNOSLIGINING AYRIM JIHLTLARI.....	41
7. Dilshod Komolov, Shodiyor Do‘smurodov O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA IDORALARINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI (1991-2000 yillar misolida).....	49
8. Dilshod Komolov, Murodali Xamdamov O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI.....	56
9. Pyosbek Mamatkarimov SOSIALISTIK REALIZMNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELISHI TARIXI.....	64
10. Yosin Ortiqov, Ra’no Ergasheva QO‘QON SHAHRI TARIXI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	69
11. Ибрагимжан Ташматов РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ (История и современность).....	74
12. Aziza Shotemirova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SANOAT KORXONALARIDA O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING O‘RNI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	80



Ilyosbek Baxritdin o'g'li Mamatkarimov,
Namangan davlat pedagogika instituti stajyor-tadqiqotchisi

SOSIALISTIK REALIZMNING O'ZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELISHI TARIXI

For citation: Ilyosbek Mamatkarimov. HISTORY OF THE INTRODUCTION OF SOCIALIST REALISM INTO THE LITERATURE OF UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 1, pp.64-68

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14803478>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Sovet Ittifoqining rasmiy ideologiyasi sifatida adabiyot va san'atda muhim o'rin topgan, Bu uslubning O'zbek adabiyotiga kirib kelishi, o'ziga xos siyosiy, madaniy va adabiy jarayonlarni yuzaga keltirdi. Sosialistik realizm, asosan, ijtimoiy hayotni ijobiy yoritishga, mehnatkashlarning ideallari va kommunistik tuzumning g'oyalarini tarqatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Sosialistik realizm, Kommunist, sinfiylik, Marseleza, proletar realizmi, antogonistik, syujet, obraz, personaj, epizod

Илёсбек Маматкаримов,

стажер-исследователь Наманганского государственного педагогического института

ИСТОРИЯ ВНЕДРЕНИЯ СОЦИАЛИСТИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА В ЛИТЕРАТУРУ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

Данная статья, как официальная идеология Советского Союза, нашла важное место в литературе и искусстве. Внедрение этого стиля в узбекскую литературу создало уникальные политические, культурные и литературные процессы. Социалистический реализм направлен главным образом на позитивное освещение общественной жизни, распространение идеалов рабочего класса и идей коммунистического строя.

Ключевые слова: соцреализм, коммунист, классицизм, марсельеза, пролетарский реализм, антагонистический, сюжет, образ, персонаж, эпизод.

Ilyosbek Mamatkarimov,

research intern at Namangan State Pedagogical Institute

HISTORY OF THE INTRODUCTION OF SOCIALIST REALISM INTO THE LITERATURE OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article is about the official ideology of the Soviet Union, which took an important place in literature and art. The introduction of this style into Uzbek literature gave rise to specific

political, cultural and literary processes. Socialist realism is mainly aimed at positively illuminating social life, spreading the ideals of the working class and the ideas of the communist regime.

Index Terms: Socialist realism, Communist, classism, Marseillaise, proletarian realism, antagonistic, plot, image, character, episode

1.Mavzuni dolzarbligi:

Kommunistik mafkura hukmronligi sharoitida, badiiy adabiyot namunalari soxtakorlik, biryoqlamalik, o‘ylab to‘qilgan obraz va epizodlar bilan to‘lib toshdi. Bu holat haqqoniy tarixni qalbakilashtirish barobarida, ulamolar hayoti, o‘rta asrlar tarixi, mustamlakachilik davriga bag‘ishlangan badiiy asarlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

81-Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

“Sosialistik realizm” nazariyasining asoschisi Sovet davlatida 1917 yil oktyabrdan 1929 yilning sentyabriga qadar Maorif Xalq komissari lavozimida ishlagan, kommunist A. F. Lunacharskiy edi.[1] U 1906 yildayoq “proletar realizmi”, degan atamani iste‘molga kiritdi. Maqolani yozishda 1905 yilda yozilgan V. Leninning “Firqa tashkiloti va firqa adabiyoti” nomli maqolasiga sezilarli darajada tayangan edi. A. Lunacharskiy 1875 yili Poltavada tug‘ilgan bo‘lib, Aleksandr Antonov hamda Aleksandra Rostovsevalarning benikoh tug‘ilgan o‘g‘li edi. Keyinroq, u o‘gay otasi V.Lunacharskiy familiyasini oldi. Oz sonli millatlarda, xususan Turkistonda ham imlo o‘zgartirish tashabbuskori ham aynan shu Anatoliy Lunacharskiy edi.

“Sosialistik realizm” uslubi ilk bor 1934 yilda chaqirilgan sovet yozuvchilarining I Butunittifoq s‘ezdida qabul qilinib, SSSR Yozuvchilari Uyushmasining Nizomi moddalarida ham rasmiy nazariya sifatida qat‘iy belgilab qo‘yildi.[2]

“Sosialistik realizm” uslubi asosida yozilgan asarlarda antogonistik qarama-qarshilik, sinfiylik tushunchalarining ustivorligi ham sezilib turadi. Din ulamolariga salbiy munosabat, hukmron mulkdor tabaqani dushman sifatida bilish, barcha orzu-umidlarga, osuda va baxtli hayotga erishishda qurolli qo‘zg‘olonni asosiy vosita, deb bilish, sinfiylikni targ‘ib qilish ham sosialistik realizmning uslublaridan hisoblanadi.

82-Tadqiqot natijalari:

Ma'lumki, tarixiy-badiiy asar bilan tarixiy-ilmiy asarning orasida anchagina farq bor. Tarixiy ilmiy asar sof tarixiy haqiqatga tayanilgan holda insho etilsa, tarixiy-badiiy asarda to‘qima syujet, obraz, personaj va epizodlarga ruxsat beriladi. Biroq, bu degani, tarixiy haqiqatni buzib talqin etilishi mumkin, degani emas.

“Sharq yulduzi” oynomasi “Nasr bo‘limi” rahbari R.Haydarova “Tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima va uydirma” nomli maqolasida mazkur masalaga to‘xtalib: “Yozuvchi badiiy to‘qimaga haqli. Ammo yozuvchining xayoloti qachon badiiy to‘qima bo‘ladi-yu, qachon uydirmaga aylanadi... Tarixiy mavzuda asar yozishga kirishayotib, ajdodlarimiz ruhini shod etishni bosh maqsadimiz etib belgilab olish, qog‘oz qoralayotib, xayolotning uchqur qanotlarida ucharkanmiz, o‘tganlar ruhini bexos ranjitib qo‘ymaslik uchun masalaning ikkala tomoniga ham qarab qo‘yishni dilimizga mahkamroq tugib olishimiz shartdir”, degan edi.[3] Haqiqatan ham tarixiy mavzuda ijod qilish ijodkordan ulkan bilim hamda mas‘uliyatni talab qiladi.

XX asrning 20-yillaridan e‘tiboran, tarixiy voqelikni yoritishda yagona mezon sifatida marksizmning, adabiyot va san‘atda esa, “sosialistik realizm”ning qabul qilinishi, alaloqibat tarixiy voqelikning soxtalashtirilib talqin qilgan holda kishilarga etkazilishiga olib keldi. Oqibatda, omma shu asosda tarbiyalandi.

To‘g‘ri, XX asrning 30-yillarida adiblarimizga oson emas edi. Ozgina siyosiy xato ortidan qatag‘on girdobiga tortilish hech gap emas edi. Sovet davrida tarixning soxtalashtirishi oqibatida san‘at va adabiyot ham shunga moslashtirildi. Natijada, qanchadan qancha iste‘dod sohiblari noyob qobiliyatlarini utopik – kommunizm g‘oyalari madh etishga sarflashga majbur bo‘ldilar. Ko‘plab nodir bilim egalari o‘z bilim hamda malakalarini sosializmning “to‘la va uzil-kesil g‘alabasi”ni madh etishga bahshida etishga majbur bo‘ldilar. Yoxud, tayyor andozalar asosidagi badiiy “buyurtmalar”ni bajarishga majbur etildilar.

Mashhur yozuvchi Oybekning “Qutlug‘ qon” romani ham xuddi ana shunday majburiyatlardan holi bo‘lmagan holda dunyo yuzini ko‘rdi. Atoqli yozuvchi Yo‘lchi vositasida mazlum kambag‘al proletariat, Mirzakarimboy siymosida esa, zulmkor ezuvchi sinf vakili, rus millatining vakili Petrov amaki personaji orqali “katta og‘a” vazifasini o‘tagan isyonkor rus ishchisining tipik qiyofasi yaratildi. Asl holat esa, umuman boshqacha bo‘lgan edi. Yuqoridagi 3 ta obrazning siyosiy qiyofasini yaratish uchun Oybek 3 marotaba Ichki Ishlar Xalq Komissarligi idorasiga chaqirtirilgan. Shundan so‘nggina qalamkash asarni ular chizib bergan qolip asosida yozishga majbur bo‘lgan.

XX asrning 20-30 yillaridan boshlab barcha adiblarimiz socialistik realizmni o‘zlari uchun asos sifatida qabul qilishga majbur bo‘ldilar. Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Boy ila xizmatchi” dramasi ham socialistik realizm uslubi asosida yaratilgan tipik asarlardan edi. Asarning beshinchi pardasida yuqoridagi fikrni isbotlovchi ko‘rinishlar mavjud bo‘lib, uni muallif quyidagicha: “...Pardada G‘ofir Sibirda bir socialist ila oshna bo‘lib, ishchilik haqini tanib, socialist bo‘lgani, katr zolimlari tarafidan temir qamchilar bilan ayni azob eb turgan chog‘da birdan hurriyat bo‘lib, bularni banddan ozod bo‘lib ketuvini tasvir qilingandir”,[3] tasvirlagan edi.

Aslida “Boy ila xizmatchi” dramasi 1920 yilgacha bo‘lgan davrda ijod etilgandir. Chunki, asarda Inqilob, Lenin, “Marseleza” so‘zlarining ishlatilishi shundan dalolat berib turibdi. Biroq, mutaxassislarning fikricha, asarning asl nusxasi yo‘qolgan bo‘lib, 1939 yil Komil Yashin tomonidan u qayta ishlangan holda tiklangan. Shu bois ham nusxada Stalin siyosatining asoratlari sezilib turadi. Bu davrda Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi adabiyotimizning yirik vakillari badnom etib bo‘lingan va Stalincha yangi metodga mos keladigan asar topish, bo‘lmasa yaratish zaruriyatga aylangan edi.

Komil Yashinning o‘zi “Davir ovozi” maqolasida “Hamza bu asarida... socialistik realizm prinsiplariga monand ish ko‘rdi”, deb yozadi.[4] Chunki, dramani Komil Yashin 1939 yili Hamzaning 50 yillik yubileyiga atab qayta tiklagan edi.

Dramada kommunistlar tomonidan tiqishtirilgan “socialistik realizm” metodi asosidagi epizodlar keyingi sahnalarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi: “...**Sultonov: Ey G‘ofir, san o‘ylama bu boylarning zulmidan, jabru sitam ko‘rgan bir man o‘zim, deb. Sancha jabr ko‘rganlar juda ko‘p topiladi. (Zindonni ko‘rsatib.)** Bu zindondagi birodarlarimning ko‘plari ham sanga o‘xshab jabr ko‘rganlar. Hamma mahbuslar boylarning uyi kuyib, xonavayron bo‘lsinlar, deydi. G‘ofirjon, xotirjam bo‘l. Yaqinda qutulamiz bu zindon azoblaridan! Inqilob bo‘ladi, inqilob, inqilob! Inqilob uchun kurashayotgan azamatlar bor. Unga rahbarlik qiluvchi Lenin birodarimiz bor. Ular bizlarni qutqazadi. Hammalari: Inqilob, inqilob! (Suyinishar.)

Sultonov: Biz ana o‘shandagina boylarni yanchamiz. Qo‘rqmanglar, haqiqat biz tomonda! Butun ishchilar biz tomonda! Ular hozirlik ko‘rayotirlar. Biz ishchi, kambag‘al dehqonlar bilan birlashamiz. Hukumatni o‘z qo‘limizga olamiz. Ana o‘shandagina biz u xoinlarni dunyo yuzidan vujudini quritimiz.

Sultonov: Man sizlarga shuni aytamanki, ishoningiz: bugun inqilob bo‘ladi. Bizni birodarlarimiz kelib, bu qiynoq, azobdan qutqazadi. Biz yorug‘lik dunyoni ana o‘shandagina ko‘ramiz! Shu vaqtda ko‘chalarda “Marseleza” marshi chalingan ovozlari eshitilur. Mahbuslarning hammasi g‘ayratga kirishgan, quvnoq hollar bilan marshga quloq solishar. (G‘ofirga qarab.) Ana, inqilob! Ana, bizning do‘stlarimiz ko‘chalarda “Marseleza” marshini o‘ynavotdilar. Hozir bizga kelarlar, bizni qutqazalar!

G‘ofirning qo‘lini echishga harakat qilib turgan choqda bir qancha kishilar zindonning eshigini buzib bostirib kirishib, mahbuslarni kishanlarini echib bo‘shatishar.

G‘ofir: Yashasin inqilob! Bizni inqilob qutqardi. Turli kishilar qizil bayroq bilan ko‘rinishar”.[5]

Mustabidchilik davrida, kommunistik mafkuraning hukmronligi ta’sirida tariximizdagi talaygina tarixiy voqealar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati ma’muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo‘ysundirilgan holda, kommunistik g‘oyalar manfaati uchun soxtalashtirilib, noto‘g‘ri talqin etildi.

Kommunistik mafkuraning hukmronligi sharoitida Islom dini hamda milliy qadriyatlarning Turkiston o'lkasi xalqlari tarixida tutgan o'rni deyarli inobatga olinmadi. Bil'aks, islom dinini tor doiradagi ma'lum hukmron qora guruhlar manfaati uchun xizmat qiluvchi "reaksion" g'oyalar yig'indisi sifatida isbotlashga urinildi.

Shuning uchun ham XX asrning 20-30 yillarida san'at va adabiyotning mafkuraviylashtirilishi, uning tom ma'nodagi tarbiyaviy ahamiyatini yo'qqa chiqardi. Bularning barchasi sun'iy nazariya bo'lmish "sotsialistik realizm"ning natijasi edi.

Atoqli jadid publisisti va yozuvchisi Cho'lpon 1914 yil yozgan maqolasida adabiyotning ahamiyati haqida "...To'p to'g'ri aytganda, u qadar ta'sir qilmas. Adabiyot ila aytganda albatta ta'sir qilar.... qahramonona umid, qahramonona his va qahramonona g'ayrat-barchalari tarixiy adabiyotning natijasidan boshqa narsa emasdir. ... Bizdan boshqa millatlarga ko'z solsak ko'ramizki, alarning olti yoshdan oltmish yashar qarilarina qadar adabiyotdan bir lazzat olub oxir umriga qadar adabiyot o'qub eshitmakni vazifai milliyasidan hisob qilur. Mana shuning uchundirki, Ovro'poning har shahar va qishloqlarida har kun, har hafta adabiyot kechalari qilinur, adabiyot o'qilur, nutq so'ylanub xalq ko'b kirub ta'sirlanurlar. ...Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o'quylik. Adiblar etishdirayluk, "adabiyot kechalari" yasayluk. Ruh, his, tuyg'u, fikr, ong va o'y olayluk, bilayluk.... Adabiyot yashasa, — millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar etishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur",[6] deb yozgan edi.

Jadidlar adabiyot va teatrga ma'rifatchilik faoliyatining muhim tarmog'i sifatida baho bergan edilar. XX asrning 10-yillari Turkiston madaniyati tarixiga yangi o'zbek milliy teatrining vujudga kelish davri bo'lib kirdi. Millatni ma'rifat nuri bilan uyg'otib, ozodlik va taraqqiyot tantanasini orzulagan jadid ziyolilari, teatni o'z maqsadlari yo'lidagi kuchli omillardan biri, deb tushungan edilar.[7]

Biroq, 20-30 yillarga kelib, jadidlar ta'riflagan millat taraqqiyosi uchun xizmat qiladigan adabiyot, dramaturgiya va teatr kommunistik mafkura targ'ibotining xizmatkoriga aylantirildi.

Masalan, 1912 yil 20-iyulda Qo'qon shahrida "Qo'qon artistlar to'garagi" Hamza Hakimzoda tomonidan tashkil etilgan edi.[8] Sovet hokimiyati o'rnatilgach esa, bu soha faoliyati ham mafkuraviylashtirildi. Hamza 1918 yilning sentyabr oyida "Farg'ona shahar maorifi qoshida musulmon dram truppassi" tuzdi. Truppa Turkiston fronti siyosiy boshqarmasi ixtiyoriga o'tkaziladi va "O'lka musulmon siyosiy drama truppassi" deb qayta nomlanadi. 1919 yilning sentyabr oyi oxirlarida "O'lka musulmon siyosiy drama truppassi" "Agitpoezd-2" nomi bilan frontga yuboriladi. Farg'ona xalq maorifi siyosiy-oqartiruv bo'limining topshirig'i bilan Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan shaharlarida qizil askarlar garnizonlari va xalq orasida madaniy tadbirlar o'tkazadi.[9] Shu orqali milliy teatr faoliyat ham siyosiyashtirib, hukmron mafkuraga moslashtirib borildi.

4.Xulosalar:

Xullas, XX asrning 20-30 yillarida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi, adabiyot, dramaturgiya sohasi ham mafkuraviylashtirildi. Sun'iy nazariya "sotsialistik realizm" tushunchasi esa, majburan asos sifatida tatbiq etildi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Istoriya Kokanda (S momenta prisodineniya Sredney Azii k Rossii do nastoyashego vremeni).-Tashkent: Fan, 1984.
2. Rizaev Sh. Jadid dramasi.-Toshkent: Sharq,1997.
3. Suvon Meliev. "Boy ila xizmatchi" yoki tiklangan nusxa muammosi //Yoshlik, 1989.- №11.
4. Xonqulov Sh. Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarda Hamza Hakimzoda Niyoziyning roli. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. avtorefer... – Farg'ona, 2022.
5. Hamza H. N. To'la asarlar to'plami. 5 tomlik. Tahrir hay'ati: Karimov N. va boshq. T. 3. Dramalar (1915—1920).-Toshkent: Fan, 1988.
6. Cho'lpon. Adabiyot nadir? //Sadoyi Turkiston, 1914 yil 4 iyun.

7. <http://uchildiz.uz/> Haydarova Risolat. Tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima va uydirma.
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
9. <https://spravochnick.ru> Sosialisticheskiy realizm v literature.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000